

## **Developing young people’s understanding of political terminology in social media contexts**

**Ochilova Dilnora Hayotovna**

*Republic of Uzbekistan Bukhara city school N32*

**Email:** *E-mail: d.h.ochilova2022@buxdu.uz*

**Abstract.** This article examines the meaning of political terms widely used on social media, their influence on youth political awareness, and effective pedagogical approaches to explaining them. The study focuses on the semantic features of foreign-origin terms, their Uzbek equivalents, and methods of adapting political terminology for young audiences.

**Keywords:** political literacy, social media, terminology, youth, global communication.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda keng qo‘llanilayotgan siyosiy terminlarning mazmuni, ularning yoshlar siyosiy ongiga ta’siri hamda ularni tushuntirishning samarali pedagogik yondashuvlari yoritiladi. Tadqiqot xorijiy kelib chiqishga ega terminlarning semantik xususiyatlari, o‘zbek tilidagi muqobil variantlari va ularni yoshlar auditoriyasiga mos tarzda izohlash masalalariga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** siyosiy savodxonlik, ijtimoiy tarmoqlar, terminologiya, yoshlar, global kommunikatsiya.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida ijtimoiy tarmoqlar siyosiy axborot tarqatishning yetakchi platformalaridan biriga aylandi. Mazkur muhitda “strategiya”, “modul”, “chellenj” kabi xorijiy kelib chiqishga ega terminlar faol qo‘llanilib, ularning mazmuni barcha foydalanuvchilar uchun birdek anglashilmaydi. Natijada yoshlar siyosiy mazmundagi axborotni yuzaki qabul qilish holatlari ko‘payib, tanqidiy tahlil ko‘nikmalarining shakllanishi cheklanmoqda. Shu bois

siyosiy terminlarni ilmiy asoslangan, oda va ona tiliga mos tarzda izohlash zamonaviy ta'lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan siyosiy terminlarning mazmunini tahlil qilish hamda ularni yosh avlodga tushuntirishning samarali usullarini aniqlashdan iborat.

**Metodologiya.** Tadqiqot davomida tahliliy va qiyosiy metodlar asosida ijtimoiy tarmoqlardagi siyosiy kontent o'rganildi. Shuningdek, terminlarning lug'aviy ma'nolari va o'zbek tilidagi muqobillari ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Pedagogik yondashuvlarni aniqlash uchun ta'lim sohasiga oid ilmiy maqolalar va metodik qo'llanmalar o'rganildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "strategiya" tushunchasi maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan uzoq muddatli reja ma'nosini anglatadi. Ushbu atamaning o'zbekcha muqobili sifatida "rivojlanish rejasi" yoki "harakatlar dasturi" terminlari qo'llanishi mumkin.

"Modul" atamasi esa muayyan tizimning mustaqil tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim jarayonida "mavzuli bo'lim" sifatida izohlanadi.

"Chellenj" tushunchasi ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan bo'lib, u "chaqiriq" yoki "sinov" mazmunini ifodalaydi.

Xorijiy terminlarning qo'llanilishi ularning qisqa, ta'sirchan va global axborot muhitiga mosligi bilan izohlanadi.

**Muhokama.** Xorijiy terminlardan haddan tashqari foydalanish yoshlarning siyosiy axborotni to‘g‘ri talqin qilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois terminlarni avvalo sodda va ilmiy o‘zbek tilida tushuntirish, so‘ngra xorijiy variantini keltirish maqsadga muvofiqdir. Vizual misollar, real ijtimoiy vaziyatlar va interaktiv muhokamalar orqali tushuntirish samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy terminlarni ongli ravishda o‘rgatish yoshlarning tanqidiy fikrlash va siyosiy savodxonligini oshiradi.

**Xulosa.** Ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan siyosiy terminlarni tushuntirish yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda ona tilining imkoniyatlaridan samarali foydalanish demokratik jamiyat uchun mas‘uliyatli fuqarolarni shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
2. Begmatov E. O‘zbek tili terminologiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Castells M. Communication Power. – Oxford University Press, 2013.
4. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni. – Toshkent, 2020.